



## KORRUPSIYAGA NISBATAN MUROSASIZ MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING USLUBIY MASALALARI

<sup>1</sup>Egamberdiyeva Gulida Abdulhakimovna

ADPI Korruptsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimimni boshqarish bo'limi boshlig'i,

<sup>2</sup>Kasimova Dildora

Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7844540>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> April 2023

Accepted: 18<sup>th</sup> April 2023

Online: 19<sup>th</sup> April 2023

### KEY WORDS

Oliy ta'lim, korruptsiya, korruptsiyaga qarshi kurashish, Korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishning uslubiy masalalari haqida ma'lumotlar berilgan. Korruptsiyaga qarshi murosasiz kurashish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.*

Korruptsiyaviy holatlar mulkiy munosabatlar, oliy ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va iqtisodiyot rivojlanishini nafaqat sekinlashtirib, balki fuqarolar tomonidan ta'lim sohasidagi o'z konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarishlariga ham to'sqinlik qiladi. Bundan kelib chiqadiki, korruptsiyaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'siri natijasida investitsiya oqimining kamayishiga, xalq farovonligining pasayishiga hamda ta'lim sifatining tushib ketishiga olib keladi.

Bugungi kunda yurtimizda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev juda ko'plab ma'ruza va chiqishlarida loqaydlik, beparvolik, poraxo'rlik, korruptsiya, soxtakorlik, mansab vakolatni suiiste'mol qilishga qarshi kurash butun jamiyatning maqsadiga aylanishi kerakligi to'g'risida gapirar ekan, "**korruptsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz**" deya ta'kidlab, unga qarshi kurashishni huquqni muhofaza qilish organlari mutasaddilariga, oliy ta'limda esa Korruptsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limlariga asosiy vazifa sifatida qo'yadi. Bu illatni oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi Qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonun bilan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish,



korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashdan iborat ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

Aniq ayta olamizki, korrupsiyasiz jamiyatga boshlovchi eng asosiy shartlardan biri bu - yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyat, jamiyatdagi korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishdir.

**Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish,** Huquqiy ong, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda uzluksiz va samarali targ'ibot bilan aholini qonun hujjatlaridan xabardor qilib borish, ularda qonunga hurmat ruhini tarbiyalash, o'z huquq va burchlarini anglatish orqali shaxsni kamol toptirish maqsad qilinadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirishning dastlabki bosqichida kapital qurilish va ta'lim sohalarining tanlanganligi ham bejizga emas.

Shuni ta'kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashishda, eng avvalo, ta'lim tizimiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, **"Inson jamiyatni o'zgartiradi, ta'lim esa insonni o'zgartiradi"** g'oyasi bo'yicha ta'lim tizimi orqali jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, ta'lim tizimi orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bu - davlat ta'lim standartlari doirasida ishlab chiqilgan va ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi nuqtai nazarni shakllantirish, tinglovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish va huquqiy madaniyatini oshirish. Ularda korrupsiyaga murosasisizlik ruxini shakllantirishga qaratilgan maxsus dasturlar asosida jamiyat va davlat manfaatlarini yo'lida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ta'limning maqsadli jarayonidir.

Bu jarayonda korrupsiyaning salbiy drayverlari hisoblangan **huquqiy nigilizm va huquqiy savodsizlikka** chek qo'yish, uning darajasini imkon qadar pasaytirish asosiy maqsad sanaladi.

Yoshlar orasida huquqiy nigilizmni bartaraf etish uchun esa, eng avvallo, bunday hodisalarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan omillarni aniqlash lozim bo'ladi. Bizningcha, huquqiy nigilizmni vujudga keltiruvchi quyidagi bir necha omillarni sanab o'tish mumkin:

ayrim yoshlarda **Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirilmaganligi;**

yoshlar orasida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni ustidan samarali nazoratning o'rnatilmaganligi;

respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning tub mohiyati haqida yoshlarimizning yetarli darajada axborotlashtirilmaganligi;

yoshlar orasida huquqiy ong va madaniyatni targ'ibot qilish natijalari yetarli tahlil qilinmayotganligi va bunda yoshlar fikrini o'rganuvchi turli xil davlat va nodavlat tuzilmalarining yetarli tarzda tashkil etilmaganligi;

qonunga itoatkor shaxsni **"davr qahramoni"** sifatida jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur mafkuraviy va targ'ibot tashviqot ishlarining yetarli emasligi;



Bugungi kunda korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va bunday muammolarni bartaraf etish, aholining oltmish foizini yoshlar tashkil etadigan aynan bizning mamlakatimizda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi ta'lim faoliyatini tashkil etishda 3 ta muhim jihatni hisobga olish lozim:

Bugungi amaldagi mavjud qonunchilik bo'yicha bilimlarni shakllantirish;

murakkab korrupsiogen holatlarni yo'q qilish bo'yicha bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish;

antikorrupsiyaviy mazmundagi ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish.

Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ta'lim mazmuni shunday shakllantirilishi lozimki, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik, ekstremizm yoki terrorizm kabi ijtimoiy illatlarga nisbatan murosasizlik darajasidan kam bo'lmaslik kerak.

Hozirgi kunda o'quv jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirmaslikning imkoni yo'q, chunki bunday ta'lim o'z o'rnida ishga layoqatlilik darajasiga, shu bilan birga mutaxassislarining uzoq muddatli kasbiy layoqatga ega bo'lishiga, tinglovchilarning huquqiy kompetentligini oshirish orqali esa ta'lim sifatini oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda o'quv jarayoni auditoriyada o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari hamda auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limdan iborat bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida kompetentlikni shakllantirish jarayoniga nisbatan qo'yiladigan asosiy pedagogik talablar esa fikrimizcha quyidagilardan iborat:

ularning kasbiy tayyorgarligi va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi kompetentlikni shakllantirish jarayonini zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan sinxronlash;

hozirgi davrda bo'layotgan o'zgarishlarni, shu bilan birga, o'zgarayotgan ijtimoiy ongini, huquqiy jihatdan o'zini anglashni hisobga olish;

ta'lim, tarbiya va rivojlantirishga oid vazifalarga moslashuvchanlik;

o'quv materiallari uchun tarkibini tanlashga ilmiy yondashuvni amalga oshirish;

o'quv jarayonini tashkil etishni bo'lajak kasbiy xizmat faoliyatining birmuncha yaqin shart-sharoitlariga bog'lash;

korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi kompetentlikni shakllantirish jarayonida zamonaviy innovatsion-pedagogik texnologiyalarni qo'llash;

nazariy bilimlarga bo'lgan ehtiyojlarni shakllantirish;

mavjud muammolar majmui bo'yicha qiziqishlarni faollashtirish.

Yuqoridagi talablarni ishlab chiqilishi, fikrimizcha, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda moslashuvchanlik va ijtimoiy tendensiyalar bilan bog'lanish imkonini beradi.

O'z o'rnida mazkur talablar bilan quyidagi ishlarni amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

**Birinchi**dan, korrupsiyaga qarshi kurash sohasida tinglovchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik, psixologik va tashkiliy belgilar bilan xarakterlanadigan maqsadga yo'naltirilgan o'ziga xos talablarini ishlab chiqish. Jumladan, ta'lim tizimining barcha bosqichlaridagi davlat ta'lim standartlarida umumiy va kasbiy kompetensiyalarni belgilab berish lozim. Ularga korrupsiyaga qarshi munosabatga doir muayyan bilim, ko'nikma va malakani shakllantirilishi lozimligini nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritish orqali **ta'lim standartlari o'rtasida uzviylikni** ta'minlash mumkin. Misol uchun, korrupsiyaviy xulq-



atvorga nisbatan murosasiz munosabatga egalik, qonunga hurmat bilan yondashish kabi umumiy kompetensiyalar, korrupsiyaviy xulq-atvorni aniqlash, unga baho berish, uning oldini olishda hamkorlik ko'rsatish uchun layoqatlilik, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazishda, shu jumladan, ularda korrupsiya yuzaga kelishi uchun shart-sharoit yaratilishiga sabab bo'ladigan qoidalarni aniqlashda ishtirok etishga tayyorlik kabi **kasbiy kompetensiyalar** shular jumlasidandir.

**Ikkinchidan**, bo'lajak huquqshunos kadrlarda korrupsiyaga qarshi kurash kompetentligining zamonaviy qiyofasini shakllantirish maqsadida **"Korrupsiyaga qarshi kurashish huquqi"** fanini kiritish.

Ma'lumki, bo'lajak huquqshunos kadrlarda korrupsiyaga qarshi kurash kompetentligining zamonaviy qiyofasini shakllantirish o'quv-tarbiyaviy jarayonning tegishli shart-sharoitlari va talablarini taqozo qiladi. Bizningcha, huquqning alohida sohasi sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish huquqi fanini kiritishlik huquqiy ongni, shu jumladan, tinglovchilarning antikorrupsiyaviy dunyoqarashini shakllantirishda, mutaxasislarning bu boradagi uzoq muddatli kasbiy layoqatga ega bo'lishida, shu bilan birga tinglovchilarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi huquqiy kompetentligini oshirishda o'zining ijobiy samarasini beradi va bu boradagi barcha masalalarni o'zida aks ettirish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, o'quv auditorisida korrupsiyaga qarshi kurashi borasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda quyidagi ta'lim texnologiyalari qo'llanilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

mashg'ulotni tashkil etishning interfaol shakllarini qo'llash;

rad etib bo'lmas faktlar, tahlillar asosida ilmiy maqolalar, tezislar, va ilmiy-ommabop materiallar tayyorlash.

Yuqoridagilardan kelib hulosa qilishimiz mumkinki, sanab o'tilgan mazkur texnologiyalarni qo'llash o'zaro kommunikativlikni, shaxslar o'rtasidagi aloqa va guruh hamkorligini ta'minlaydi, maqsadga yo'naltirilgan fikrlashni rivojlantiradi, kasbiy faoliyatda antikorrupsiyaviy motivatsiyaga oid talablarni o'zlashtirish imkonini beradi. Qiziqarlighi, ijodiyligi jihatidan tinglovchiga nisbatan katta **hissiy ta'sir ko'rsatishini** inobatga olishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga Qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son Farmoni bu boradagi izchil sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Afsuski, yurtimizda bu borada yetarlicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga qaramasdan jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda.

Rivojlangan demokratik davlatlar, jumladan Singapur, Shvesiya, Finlandiya davlat islohatlarini ayna mazkur illat - korrupsiyani ildiziga bolta urish bilan boshlaganligi va bu borada tizimli ravishda ish olib borishni o'zlarining asosiy vazifalari deb belgilaganligi



uchungina jahonda korrupsiya darajasini o'rganuvchi Transparency International tashkilotining korrupsiyaning yo'qlik indeksida har doim yuqori pag'onalarida turishini ta'minlaydi. Bu albatta mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, jumladan investitsiya faoliyatining taraqqiyotiga, investitsiya muhitiga ijobiy ta'sir qilib, davlatni har tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ta'kidlash kerakki, "Korrupsiya aralashmagan joyda har bir insonning iste'dodi namoyon bo'ladi. Yutuqlari ilgari suriladi. Bunday yetuk malakali insonlardan ,albatta, Ibn Sino, Farg'oni, Beruniy, Xorazmiy kabi mutafakkirlar yetishib chiqsa ajab emas. Eng avvalo yuksak taraqqiyotga erishish uchun fuqarolar o'zini emas, amal kursisini emas, balki, jamiyat manfaatini o'ylab ish tutsa o'shandagina korrupsiyaning ildizini quritish mumkin".

Takror va takror aytishimiz kerakki, korrupsiya - bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazibgina qolmay, inson huquqlari buzilishiga, moliyaviy bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qilinishiga, har bir jabha taraqqiyotini sekinlashishiga va jamiyat xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib ketishiga sharoit yaratib berishi hammamizga kundek ravshandir.

Ushbu zararli hodisa katta yoki kichik, badavlat yoki kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Lekin, mazkur illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha bartaraf etilmay kelinmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev farzandlarimizga bolaligidan pokni nopokdan, halolni haromdan farqlashga o'rgatishni nazarda tutib, yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlari lozimligini ta'kidladilar: ***"Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq"***.

Mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro korrupsiya tahdidning zararli oqibatlarini doimo esda tutmog'i va unga qarshi kurashmog'i shart.

Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning, xoh bojxona xodimi, xoh prokuror, kim bo'lishidan qat'iy nazar ichki axloqiy-ruhiy maslagi va e'tiqodiga aylanishi kerakki, bu korrupsiyaga qarshi ma'rifatning o'zagini tashkil qiladi. Qonun talablarining to'laqonli amalga oshirilishi mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini oshirishga, rivojlanish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi alohida o'rinni egallaydi. Unda yoshi va kasbidan qat'iy nazar barchaning huquqiy savodxonligi yuqori bo'lishi, ayniqsa, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshirilishi lozimligi ko'rsatilgan.

Korrupsiyaning huquqiy sabablari haqida to'xtalganda, uning rivoji davlatdagi qonunlarning sifatiga bog'liq bo'lib, nomukammal bo'lgan qonunlar ishlaymaydi va korrupsiyaga moyil shaxslar bundan ustamonlik bilan foydalanishga intiladi. Korrupsiyaning ijtimoiy sabablariga jamiyatdagi nosog'lom muhit, aholining huquqiy bilim va madaniyati,



ma'naviyatining quyi (past darajada) ekanligi, diniy-ma'rifiy savodsizligi, uyushqoqlik va jamoatchilikdagi faollikning etishmasligi kiradi. Shunisi e'tiborliki, jamiyatdagi ijtimoiy ongning u yoki bu tarzda o'zgarishiga odamlarda davlat va qonunlarga nisbatan ishonch paydo bo'lishiga mamlakat rahbar xodimlarining o'z vazifalarini qay darajada amalga oshirishlari o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ular tomonidan to'g'ri va adolatli qarorlar qabul qilinsa, fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklansa, ijtimoiy himoya kuchaytirilsa, xalqning jamiyatda adolat, haqiqat borligiga ishonchi ortadi. Uning aksi bo'lsa odamlar orasida norozilik va xukumatga nisbatan ishonchsizlik yuzaga keladi.

Umuman olganda, korrupsiyaga sezilarli zarba berish uchun, eng avvalo, jamiyatda mazkur illatga qarshi murosasiz muxitni tashkil etish lozimdir. Buning uchun esa, barcha fuqarolar o'z huquq va burchlarini bilishlari bilan bir qatorda, unga shaxsan rioya qilish va boshqalardan ham shuni talab qilishlari lozimdir.

**Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki,** korrupsiya va poraxo'rlik jamiyat barqarorligining muhim asosi bo'lgan adolatning yo'qolishiga olib boradi. Pora vositasida noxaqlik xaq maqomiga chiqishi bois jamiyat parokanda bo'ladi. Mamlakatimiz mustahkamligi, xalqimiz farovonligi, yurtning rivoji va gullab yashnashini, obod bo'lishini istagan har bir fuqaro pora olish va berish illatidan halos bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, **Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, "halollik vaksinasi"** bilan emlanishi kerakdir.

## References:

1. Sh.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2018-yil 7-dekabr, <http://gazeta.uz>.
2. Sh.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020-yil 24-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma'lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 3887-son.
4. И.С. Кнауэст. Коррупция учреждениях высшего профессионального образования. "Магистерская диссертация" Томск. 2016 г.